

O‘zbekiston Respublikasi
Raqamli texnologiyalar vazirligi

O‘zbekistonning raqamli integratsiyasi loyihasi
(P179108)

Ekologik va ijtimoiy javobgarlik rejasi (ESCP)

Yanvar, 2023-yil

EKOLOGIK VA IJTIMOY JAVOBGARLIK REJASI

1. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligini jalb qilgan holda, Moliyaviy kelishuvda belgilangan O'zbekistonning raqamli integratsiyasi loyihasini (loyiha) amalga oshiradi. Xalqaro Taraqqiyot Assotsiatsiyasi (Assotsiatsiya) aytib o'tilgan kelishuvda ko'rsatilganidek, Loyihani moliyalashtirishni (P179108) ta'minlashga o'z roziligini bildirdi.
2. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi Loyihaning Atrof-muhit va ijtimoiy standartlar (ESSs) va ushbu Ekologik va ijtimoiy javobgarlik rejasiga (ESCP) muvofiq, hamda Assotsiatsiya uchun maqbul tarzda amalga oshirilishini ta'minlashi kerak. Ekologik va ijtimoiy javobgarlik rejasida Moliyaviy kelishuvning bir qismidir. Agar ushbu Ekologik va ijtimoiy javobgarlik rejasida boshqacha belgilanmagan bo'lsa, ushbu Ekologik va ijtimoiy javobgarlik rejasida qo'llaniladigan bosh harflar bilan yozilgan atamalar ular ko'rsatilgan shartnoma(lar)da berilgan ma'nolarga ega.
3. Yuqoridagilar bilan cheklanmagan holda, ushbu ESCP O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi tomonidan amalga oshiriladigan yoki amalga oshirilishiga sabab bo'ladigan muhim chora-tadbirlar va harakatlarni belgilaydi, shu jumladan, bu agar kerak bo'lsa, harakatlar va chora-tadbirlarni amalga oshirish muddatlari, institutsional, xodimlar bilan ta'minlash, o'qitish, monitoring va hisobot berish tartibi va shikoyatlarni boshqarishni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ESCP Loyiha doirasida qabul qilinadigan va amalga oshiriladigan ekologik va ijtimoiy (E&S) vositalarini belgilaydi, ularning barchasi ESSga muvofiq, oldindan maslahatlashuv o'tkazilishi va oshkor etilishi kerak, hamda tegishli shakl va mazmunda va Assotsiatsiya uchun maqbul bo'lgan tarzda bo'lishi lozim. Qabul qilingandan so'ng, ko'rsatib o'tilgan ekologik va ijtimoiy vositalar Assotsiatsiya tomonidan oldindan yozma kelishuv bilan vaqti-vaqti bilan qayta ko'rib chiqilishi mumkin.
4. Assotsiatsiya va O'zbekiston Respublikasi Raqamli Texnologiyalar Vazirligi kelishuviga ko'ra, ushbu ESCP vaqti-vaqti bilan, kerak bo'lgan hollarda, Loyihani amalga oshirish jarayonida, Loyihadagi o'zgarishlarni va kutilmagan holatlarni moslashuvchan tarzda boshqarishni aks ettirish uchun yoki Loyihaning bajarilishiga javoban qayta ko'rib chiqiladi. Bunday sharoitda Raqamli texnologiyalar vazirligi va Assotsiatsiya Raqamli texnologiyalar vazirligi va Assotsiatsiya o'rtasida imzolangan xatlar almashinuvi orqali ushbu o'zgarishlarni aks ettirish uchun ESCPni yangilashga kelishib oladilar. O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligi yangilangan ESCPni zudlik bilan oshkor etishi kerak.

MODDIY CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		Vaqt muddati	Mas'ul tashkilot
MONITORINGNI AMALGA OSHIRISH VA HISOBOT BERISH			
A	<p>DOIMIIY HISOBOT</p> <p>Loyihaning atrof-muhit, ijtimoiy, sog'liq va xavfsizlik (ESHS) ko'rsatkichlari bo'yicha muntazam monitoring hisobotlarini tayyorlash va Assotsiatsiyaga taqdim etish, shu jumladan, lekin bu bilan cheklanmagan holda, bu ESCPni amalga oshirish, ESCP doirasida talab qilinadigan E&S vositalarini tayyorlash va joriy etish holati, manfaatdor tomonlarni jalb qilish faoliyati va shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmlarining ishlashini o'zi ichiga oladi. Hisobot, shuningdek, Loyihaning manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (SEP), Mehnatni boshqarish tartib-qoidalarini (LMP) va Ekologik va ijtimoiy asos (ESMF) bo'yicha muvofiqligini qamrab oladi.</p>	<p>Assotsiatsiyaga Loyihani amalga oshirish davomida, kuchga kirgan sanadan keyin olti oylik hisobotlarni taqdim etish. Har bir hisobotni Assotsiatsiyaga har bir hisobot davri tugaganidan keyin 30 kundan kechiktirmay topshirish kerak, lekin bu missiyadan tashqari.</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi (PIU).</p>
B	<p>VOQEALAR VA BAXTSIZ HODISALAR</p> <p>Atrof-muhitga, zarar ko'rgan jamoalarga, jamoatchilikka yoki ishchilarga jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadigan yoki salbiy ta'sirni keltirishi mumkin bo'lgan loyiha bilan bog'liq har qanday voqea yoki baxtsiz hodisalar, jumladan, jinsiy maqsadlarda foydalanish va zo'ravonlik holatlari (SEA), jinsiy zo'ravonlik (SH) hamda loyiha faoliyati bilan bog'liq bo'lgan o'lim, jiddiy yoki ko'p jarohatlarga olib keladigan baxtsiz hodisalar holatlarida darhol Assotsiatsiyaga xabar berish lozim. Voqea yoki baxtsiz hodisaning ko'lami, jiddiyliги va yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sabablari, uni bartaraf etish uchun darhol ko'rilgan yoki ko'rilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar haqida yetarlicha ma'lumot va tegishli ravishda har qanday pudratchi va/yoki nazorat qiluvchi korxonadan taqdim etilgan har qanday ma'lumot taqdim etilishi kerak.</p> <p>Keyinchalik, Jahon bankining so'roviga asosan, voqea yoki baxtsiz hodisalar to'g'risida hisobot tayyorlash va ushbu hodisalarni bartaraf etish va ular takrorlanishining oldini olish bo'yicha choralarni taklif etish.</p>	<p>Voqea yoki baxtsiz hodisa haqida xabar topgandan so'ng 48 soatdan kechiktirmay Assotsiatsiyaga xabar berish.</p> <p>Hodisa haqida dastlabki aloqa va xabar berilgan kundan boshlab uch ish kuni ichida Assotsiatsiyaga voqea to'g'risida keyingi hisobotni taqdim etish.</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi</p>
C	<p>PUDRATCHILARNING OYLIK HISOBOTLARI</p> <p>Pudratchilar va nazorat qiluvchi korxonalardan tegishli tender hujjatlari va shartnomalarda ko'rsatilgan ko'rsatkichlarga muvofiq ESHS bajarilishi bo'yicha oylik monitoring hisobotlarini taqdim etishlarini talab qilish va bunday hisobotlarni Assotsiatsiyaga taqdim etish.</p>	<p>Yuqoridagi A chorasi doirasida taqdim etiladigan hisobotlarga ilova sifatida Assotsiatsiyaga hisobotlarni taqdim etish.</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi</p>
ESS 1: EKOLOGIK VA IJTIMOIIY XAVF VA TA'SIRLARNI BAHOLASH VA BOSHQARISH			
1.1	<p>TASHKILIIY TUZILMA</p> <p>Loyihaning ESHS risklari va ta'sirini boshqarishni qo'llab-quvvatlash uchun malakali xodimlar va resurslarga ega bo'lgan, shu jumladan atrof-muhit bo'yicha bitta mutaxassis, ijtimoiy masalalar bo'yicha bitta mutaxassis va manfaatdor tomonlarni jalb qilish bo'yicha bitta mutaxassis, Loyihani amalga oshirish bo'limini (PIU) yaratish va qo'llab-quvvatlash. Loyihani amalga oshirish davomida zarur bo'lganda tashkiliy tuzilmani qo'llab-quvvatlash.</p>	<p>Loyihani amalga oshirish bo'limining Ekologik va ijtimoiy nazorat uchun mas'ul mutaxassislari Loyiha ishga tushishidan oldin ishga olinadi. Loyiha kuchga kirgandan keyin 60 kundan kechiktirmay Jahon banki jamoasi tomonidan ekologik va ijtimoiy</p>	<p>Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi</p>

MODDIY CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		Vaqt muddati	Mas'ul tashkilot
		xavflar uchun mas'ul xodimlarni tekshirish va zarurat tug'ilganda trening o'tkazishni ta'minlash. Keyinchalik loyihani amalga oshirish davomida saqlanib qoladi.	
1.2	EKOLOGIK VA IJTIMOYIY VOSITALAR Subloyihaga xos ekologik va ijtimoiy xavflarni baholash hamda subloyihaga oid Atrof-muhit va ijtimoiy boshqaruv rejalarini (ESMP) tayyorlash qoidalari va tartiblarini belgilaydigan Loyihaning ekologik va ijtimoiy boshqaruv asoslarini (ESMF) yakunlash.	Loyihani baholashdan oldin. Jamoatchilik bilan maslahatlashish uchun oshkor qilinadigan ESMFning yakuniy loyihasi Jahon banki jamoasi tomonidan ko'rib chiqilishi va qabul qilinishi kerak.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
1.3	PUDRATCHILARNI BOSHQARISH ESCP va ESMF ning tegishli jihatlarini, jumladan, ESMPga tegishli E&S vositalarni, mehnatni boshqarish tartib-qoidalarini va Odob-axloq kodeksini o'z ichiga oladi. Internet infratuzilmasini o'rnatish yoki qurilish ishlari uchun mas'ul bo'lgan pudratchilar bilan tuzilgan xaridlar hujjatlarining barcha ESHS spetsifikatsiyalariga ESMPni kiritish. Shundan so'ng pudratchilar o'zlarining tegishli shartnomalarining ESMP talablariga va ESHS spetsifikatsiyalariga rioya qilishlarini ta'minlash.	Xarid qilish hujjatlarini tayyorlashdan oldin. Loyihani amalga oshirish davomida pudratchilarni nazorat qilish. Bunday ESMPni qabul qilishni talab qiladigan tegishli qurilish ishlari yoki asbob-uskunalarini o'rnatish ishlari uchun tender jarayonini boshlashdan oldin ESMPni qabul qilish. Qabul qilingandan so'ng, loyihani amalga oshirish davomida tegishli ESMPni joriy etish.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi Pudratchilar
1.4	TEXNIK MASLAHAT SHARTNOMALARINI BOSHQARISH Texnik topshiriqlarga ESCPning tegishli jihatlarini, shu jumladan ESMF, manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasi (SEP) va mehnatni boshqarish tartib-qoidalarini (LMP) tegishli jihatlarini kiritish. Shundan so'ng, maslahatchilarning yondashuvlari va natijalari texnik topshiriqlarga mos kelishiga ishonch hosil qilish.	Xarid qilish bo'yicha hujjatlarni tayyorlashdan oldin. Loyihani amalga oshirish davomida maslahatchilarni nazorat qilish.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
ESS 2: MEHNAT VA ISHLASH SHAROITLARI			
2.1	MEHNATNI BOSHQARISH TARTIBLARI Loyiha uchun mehnatni boshqarish tartiblarini (LMP) qabul qilish va joriy etish, shu jumladan, mehnat sharoitlari, ishchilar bilan munosabatlarni boshqarish, mehnatni muhofaza qilish va xavfsizlik (shu jumladan shaxsiy himoya vositalari, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlik va javob berish), Odob-axloq kodeksi (shu jumladan SEA va SH bilan bog'liq), majburiy mehnat, bolalar mehnati, loyiha ishchilari uchun shikoyat mexanizmi va pudratchilar, subpudratchilar va nazorat qiluvchi firmalar uchun qo'llaniladigan talablar.	LMP loyihani baholash tugashidan oldin tayyorlanishi, maslahat qilinishi va oshkor etilishi kerak. Yetkazib beruvchilarga taalluqli chora-tadbirlar loyihaning tegishli faoliyati uchun xaridlar jarayonini boshlashdan oldin qabul qilinadi va keyinchalik	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi

MODDIY CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		Vaqt muddati	Mas'ul tashkilot
		tegishli loyiha faoliyati davomida amalga oshiriladi. ESS2 doirasidagi barcha harakatlar Loyihani amalga oshirish davomida amalga oshirilishi kerak.	
2.2	LOYIHA XODIMLARI UCHUN SHIKOYAT MEXANIZMI LMPda tavsiflangan va ESS2 bilan mos keladigan loyiha ishchilari uchun shikoyat qilish mexanizmini yaratish, qo'llab-quvvatlash va boshqarish. SEA/SH bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun shikoyat mexanizmi doirasida alohida oyna ochiladi.	Loyiha kuchga kiringunga qadar Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmini qabul qilish va uni Loyihani amalga oshirish davomida qo'llab-quvvatlash.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
2.3	LOYIHA XODIMLARINI O'QITIISH Putratchilardan ishga qabul qilingan ishchilarni ularning huquq va majburiyatlari, shu jumladan xodimlarning shikoyat qilish mexanizmi haqida xabardorligini oshirish va Odoq-axloq kodeksini (CoC) amalga oshirish va o'z xodimlarini SEA/SHni taqiqlash bo'yicha o'qitishni talab qilish.	Xulq-atvor kodeksi imzolanishidan oldin har bir ishchi o'z ishini boshlash uchun treningdan o'tishi kerak.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi/ Putratchilar
ESS 3: RESURLAR SAMARADORLIGI VA IFLOSLANISHNING OLDINI OLISH VA BOSHQARISH			
3.1	ESMFda belgilanishi kerak bo'lgan elektron chiqindilarni boshqarish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va yangilash. Qazilgan materiallar, shikastlangan asfalt/beton, metall, qadoqlash chiqindilari, kabel bilan bog'liq chiqindilar va asbestli qoldiqlar kabi xavfli chiqindilarni yo'q qilish, shuningdek, rekonstruksiya va qurilish vaqtida qurilish materiallari bilan ishlash va boshqa atrof-muhitni muhofaza qilish tadbirlari sohadagi maxsus ESMPga kiritiladi. Operatsion bosqichda, elektr ta'minotida uzilishlar yuz berganda, Internet xizmatlarining uzluksiz yetkazilishini ta'minlash uchun batareyalar yoki dizel generatorlari kabi zaxira quvvat manbalarini joylashtirish zarur bo'lishi mumkin. Ishlatilgan batareyalar yetkazib beruvchiga topshiriladi. Generatorlar tashqarida yoki havo yaxshi aylanadigan joylarda o'rnatiladi, bu yerda ular jamiyatga shovqin va chiqindi gazlari ko'rinishidagi noqulayliklarni kamaytiradi. Energiya tejankor generatorlar talab qilinadi. Bundan tashqari, gaz, suv ta'minoti, kanalizatsiya, isitish tizimidagi uzilishlar ham ESMP tomonidan qoplanadi.	Loyihani ishlab chiqish, oshkor qilish, manfaatdor tomonlar bilan muhokama qilish, Bankni qoniqtiradigan tarzda yakunlash, loyiha bo'yicha qurilish ishlari davomida qurilish ishlarini bajarish bo'yicha shartnomalarni kiritish va ESMPni amalga oshirishni ta'minlash	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
ESS 4: JAMIYAT SALOMATLIGI VA XAVFSIZLIGI			
4.1	ESS 4 ning tegishli jihatlari yuqoridagi 1.2, 1.3, 1.4 va 2.1 harakatlarga to'g'ri keladi, jumladan: xavf-xatarlar ta'sirini minimallashtirish; va jinsiy maqsadda foydalanish, suiste'mol qilish yoki zo'ravonlikning oldini olish/javob berish.	Loyihaning butun hayoti davomida.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
4.2	GBV VA SEA XAVFI.	Ishlar boshlanishidan oldin	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi

MODDIY CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		Vaqt muddati	Mas'ul tashkilot
	Pudratchilardan ESMFga muvofiq jinsiy maqsadda foydalanish, zo'ravonlik va jinsiy zo'ravonlik (SEA/SH) xavfini oldini olish va yumshatish bo'yicha saytga xos ESMPga harakatlarni kiritishni talab qilish va ularning bajarilishini ta'minlash. Bunga barcha xodimlar uchun Xulq-atvor kodeksini ishlab chiqish va unga rioya qilish, SEA/SH - shikoyatlarni ko'rib chiqishga oid sezgirlashtirilgan mexanizm, barcha xodimlar va hamjamiyat a'zolarining SEA/SH risklari va ularni yumshatish choralari haqida xabardorlikni oshirish kiradi, lekin bular bilan cheklanmaydi.	Loyihani amalga oshirish davomida amal qilish	Loyihani amalga oshirish bo'limi Pudratchilar
ESS 5: YER OLISH, YERDAN FOYDALANISHNI CHEKLASH VA MAJBURIY KO'CHIRISH			
ESS 5 loyihaga tegishli emas.			
Yer uchastkalarini vaqtincha yoki doimiy ravishda majburiy ravishda olib qo'yish, yerdan foydalanishni cheklash, xo'jalik faoliyati yoki qonuniy mulkchilik shaklidan qat'i nazar, uy xo'jaliklari, yuridik shaxslarning resurslardan foydalanish imkoniyatini cheklashga olib kelishi mumkin bo'lgan faoliyat ushbu Loyiha doirasida moliyalashtirishdan chiqarib tashlanadi. ESMF ijtimoiy skrining shaklini taqdim etadi va skrining natijalariga ko'ra, yerni majburiy ravishda olib qo'yish, yerni olishga majburlash yoki iqtisodiy hayot va standartlarga salbiy ta'sir ko'rsatadigan har qanday faoliyat moliyalashtirishdan chiqarib tashlanadi.			
ESS 6: BIOLOGIK XILMA-XILLIKNI SAQLASH VA TIRIK TABIIY RESURLARNI BARQAROR BOSHQARISH			
ESS 6 loyihaga tegishli emas			
ESS 7: MAHALLIY XALQLAR / SAHROI AFRIKANING TARIXIY JIHATDAN KAM XIZMAT KO'RSATGAN AN'ANAVIY MAHALLIY JAMOALARI			
Sahroi Afrikaning tarixiy jihatdan kam xizmat ko'rsatgan an'anaviy mahalliy jamoalari			
ESS 8: MADANIY MEROS			
ESS 8 loyihaga tegishli emas			
ESS 9: MOLIYAVIY VOSITACHILAR			
ESS 9 loyihaga tegishli emas			
ESS 10: MANFAATDOR TOMONLARNING ISHTIROKI VA AXBOROTNI OSHKOR QILISH			
10.1	MANFAATDOR TOMONLARNI JALB QILISH REJASINI TAYYORLASH VA AMALGA OSHIRISH Loyiha uchun ESS10 ga mos keladigan manfaatdor tomonlarni jalb qilish rejasini (SEP) qabul qilish va amalga oshirish, bu, jumladan, manfaatdor tomonlarni o'z vaqtida, tegishli, tushunarli va foydalanish mumkin bo'lgan ma'lumotlar bilan ta'minlash va ular bilan manipulyatsiya qilish, aralashish, majburlash, kamsitish va qo'rqitishdan xoli bo'lgan, madaniy jihatdan mos keladigan tarzda maslahatlashish choralari o'z ichiga oladi.	SEP loyihani baholash tugagunga qadar yakunlandi, maslahat amalga oshirildi va oshkor qilindi.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
10.2	LOYIHANING SHIKOYATLARNI KO'RIB CHIQISH MEXANIZMI Loyihaga taalluqli muammolar va shikoyatlarni tez va samarali, shaffof, madaniy jihatdan maqbul va Loyiha ta'sir ko'rsatayotgan barcha tomonlarga osonlik bilan kirish mumkin bo'lgan holda qabul qilish va hal etishga ko'maklashish uchun shikoyatlarni ko'rib chiqishning qulay mexanizmini yaratish, e'lon qilish, qo'llab-quvvatlash va boshqarish, bu hech qanday to'lovsiz va jazolarsiz, shu jumladan anonim tarzda yuborilgan muammolar va shikoyatlarni o'z ichiga olgan holda ESS10 ga muvofiq bo'lishi kerak.	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi loyiha faoliyati boshlanishidan oldin Loyihani amalga oshirish bo'limi tomonidan tuziladi va keyinchalik Loyihaning butun muddati davomida saqlanadi va boshqariladi.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi

MODDIY CHORA-TADBIRLAR VA HARAKATLAR		Vaqt muddati	Mas'ul tashkilot
	Shikoyatlarni ko'rib chiqish mexanizmi SEA/SH shikoyatlarini qabul qilish, ro'yxatdan o'tkazish va hal qilishni osonlashtirish uchun jihozlangan, shu jumladan, jabrlanuvchilarni xavfsiz, maxfiy va jabrlanuvchilar uchun qulay tarzda tegishli jinsga asoslangan zo'ravonlik xizmatlari provayderlariga yuborish orqali amalga oshirilishi kerak.		
SALOHİYATNI QO'LLAB-QUVVATLASH			
CS1	<p>PMU xodimlari va loyiha guruhlariga quyidagilar bo'yicha treninglarni o'tkazish: Loyihani ishga tushirish tadbirlari doirasida Toshkent shahrida va loyihaning maqsadli hududlarida quyidagi auditoriyalar uchun ESF treninglarini o'tkazish: Loyihaga jalb qilingan IT Parkning mas'ul xodimlari Loyihani amalga oshirish bo'limi xodimlari Loyihaga jalb qilingan Loyihani amalga oshirish bo'limi/IT parkning hududiy xodimlari</p> <p>Asosiy mavzular:</p> <ol style="list-style-type: none"> 1. Ekologik va ijtimoiy asos. 2. Mehnatni boshqarish tartibi, shu jumladan ishchilar va benefitsiarlarning shikoyatlarini ko'rib chiqish. 3. GBV/SEA/SHning mumkin bo'lgan holatlarining oldini olish va ularga javob berish hamda Xulq-atvor kodeksini qo'llash. 4. ESMF va elektron chiqindilarni boshqarish. 	Loyihani amalga oshirish davomida.	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi
CS2	Loyiha xodimlari uchun mehnat salomatligi va xavfsizligi, shu jumladan favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularga tayyorgarlik ko'rish va favqulodda vaziyatlarga javob berish choralari, ishchilarning shikoyat qilish mexanizmi, jamoat salomatligi va xavfsizligi, shu jumladan SEA/SH bo'yicha trening.	Loyihani amalga oshirish davomida, lekin ish boshlanishidan oldin	Raqamli texnologiyalar vazirligi huzuridagi Loyihani amalga oshirish bo'limi